

KASBIY STANDART

Faol turizm turlarini tashkil etish va o'tkazish

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Yo'riqchi-yo'l boshlovchi" kasbi bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda, biznes yuritish yoki kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

alpinizm – maqsadi tog' cho'qqilariga chiqish bo'lgan faol turizm turi;

aniqlovchi omillar – qiyinlik toifasiga ega bo'lmagan, ammo marshrutning murakkablik toifasini sezilarli darajada aniqlaydigan, omillar (hududning geografik ko'rsatkichlari, marshrutning avtonomligi, marshrutda guruh tomonidan erishilgan balandliklarning umumiy farqi, marshrutning keskinligi va boshqalar);

aniqlovchi to'siqlar – o'ziga xos qiyinlik toifasiga ega bo'lgan mahalliy va cho'zilgan tabiiy to'siqlar;

avtomoto-turizm va velosiped turizmi – tegishli harakatlanish vositalarida – velosipedlar, avtomobillar, mototsikllar, qor avtomobillari va boshqalarda tekislik va tog'lar bo'ylab marshrutlarni bosib o'tishdan iborat bo'lgan, sayohat, turistik yurishlar;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

chang'i turizmi – chang'i turizmi marshrutlaridan o'tish, shu jumladan tabiiy to'siqlarni yengib o'tishni o'z ichiga olgan, sayohatlar, turistik yurishlar;

cho'zilgan to'siqlar – katta uzunlikka ega bo'lgan va ularni yengib o'tishda turistlardan katta jismoniy kuchni talab qiladigan to'siqlar. Izoh – Piyoda, velosipedda, avtomoto marshrutlarda keng tarqalgan;

ekskursant – vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs;

ekskursiya yetakchisi – turistlar va ekskursantlarni muayyan turistik resurs bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs.

etalon marshrut – u yoki bu murakkablik toifasiga tasniflash uchun zarur bo'lgan, aniqlovchi to'siqlar va aniqlovchi omillarning minimal to'plamiga ega turistik marshrut.

etalon marshrutlar ro'yxati – turizmning faol turlari bo'yicha tasniflangan turistik marshrutlar;

faol turizm – sayohatning faol turlaridan foydalangan holda turizm – piyoda, chang'i, velosiped, otlarda va boshqalar;

faol turizmning har xil turlarini o'tkazish texnikasi – ma'lum turistik marshrut (yoki uning alohida uchastkasi) ning tabiiy to'siqlarini yengib o'tish usullari va turistlarning xavfsizlikni ta'minlash uchun tegishli jihozlardan foydalanish ko'nikmalari;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblash-tirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

izoh – Turistik hududlarning etalon marshrutlari hududda turli xil aniqlovchi omillar mavjudligiga qarab turli xil miqdordagi aniqlovchi to'siqlarga ega bo'lishi mumkin;

karavaning – tirkama-karvonni (g'ildirakdagi turar-joy) shatakka olib, avtomobilda sayohat qilish;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kayaking – kayaklarda suzib o'tish;

kaytserfing (kaytbording) – varrak bilan boshqariladigan serfingda uchishdan iborat bo'lgan, suvdagi faol turizm turi;

kombinatsiyalangan turistik marshrut (yurish) – har xil faol turizm turlariga xos bo'limlardan tashkil topgan turistik marshrut (yurish);

kombinatsiyalangan turizm – faol turizmning bir nechta turlariga xos bo'lgan hududlar bo'ylab turistik marshrutlarni bosib o'tishdan iborat bo'lgan, sayohat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mahalliy to'siqlar – kichik masofaga ega bo'lgan va ularni yengib o'tishda turistlardan tegishli darajadagi texnik mahorat va maxsus jihozlardan foydalanishni talab qiladigan, to'siqlar. Tog', suv va g'or marshrutlarni toifalashda, birinchi navbatda, dovonlar, tizmalarning traverslari, cho'qqilar, g'orlar, ostonalar va boshqalar hisobga olinadi;

marshrut kitobchasi – toifali yurish uchun hujjat. Ariza hujjatlari (marshrut kitobchasi, uning nusxasi, ishtirokchilar, rahbar va rahbar o'rinbosarlarining turistik tajribasi to'g'risidagi ma'lumotnomalar, kartografik material, tibbiy ma'lumotnomalar) e'lon qilingan yurishni ko'rib chiqish va guruhning marshrutdan chiqishini nazorat qilish uchun Qutqaruv xizmatida ro'yxatdan o'tish uchun komissiyaga (MMK) taqdim etilishi kerak.

marshrut malaka komissiyasi (MMK) – turistik marshrutni (turistik yurish) rejalashtirish va bosib o'tish hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar malakasining natijalarini chiqarish (turistik tajriba hisoblari) bosqichida turistik yurishni ekspert baholashni amalga oshiradigan turistik-sport jamoat organi yoki ixtisoslashtirilgan jamoat tashkilotlari, komissiya;

marshrut murakkabligi toifasi – turistik yurishdagi to'siqlarning tabiati, soni va xilmaxilligiga qarab marshrutning davomiyligi, uzunligi va texnik murakkabligi;

marshrut varag'i – toifali bo'lmagan yurishlar uchun hujjat. U turistik yurishni amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan beriladi (turistik firma, o'quvchilar ijodiyoti markazi, maktab ma'muriyati, OTM sport klubi, turistik klub va boshqalar);

marshrut-malaka komissiyasi – turistik marshrutni (turistik yurish) rejalashtirish va bosib o'tish hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilar malakasining natijalarini chiqarish (turistik tajriba hisoblari) bosqichida turistik yurishni ekspert baholashni amalga oshiradigan turistik-sport jamoat organi yoki ixtisoslashtirilgan jamoat tashkilotlari, komissiya;

mauntinbayking – velosipedlarda tog' hududlarida sayohat va sport tushishi;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

murakkablik darajasi – sarguzasht turizmi faoliyatida ishtirok etishda duch kelishi mumkin bo'lgan jismoniy va psixologik qiyinchiliklarni talab qilinadigan texnik qobiliyat, relyef, balandlik yoki iqlim kabi omillarga asoslangan holda baholash;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

ot turizmi – tekislik va tog' hududlari bo'ylab otlarda marshrutlarni bosib o'tishdan iborat bo'lgan, sayohat, turistik yurishlar.

piyodalar turizmi – turistik marshrutlarni piyoda bosib o'tishni o'z ichiga olgan, shujumladan tabiiy to'siqlarni (o'tish joylari, tog'li hududlar va boshqalar) yengib o'tishni ko'zda tutadigan, sayohatlar, turistik yurishlar;

qoyaga va muzga ko'tarilish – toshli va muzli devorlarni yengib o'tadigan alpinizm turi;

rafting- puflanadigan qayiqalarda (raftlarda) suzib o'tish;

sayohat – har qanday hudud yoki akvatoriya bo'ylab ularni o'rganish maqsadida, shuningdek umumiy ta'lim, o'rganish, sport, faol va boshqa turistik maqsadlarda harakatlanish;

serfing – serfingda uchishdan iborat bo'lgan, suvdagi faol turizm turi;

snoubording – qor bilan qoplangan yon bag'irlardan va tog'lardan snoubordda tushishdan iborat bo'lgan faol turizm turi;

speleoturizm (speleologik turizm) – o'rganish va sport maqsadlarida tabiiy g'orlar bo'ylab sayohat, turistik yurishlar;

sport turizmi – turistik marshrutlar va masofalarni bosib o'tish, shu jumladan tabiiy muhitda yoki sun'iy relyefda yotqizilgan murakkabligi bo'yicha toifalangan to'siqlarni (dovon, traverslar, cho'qqilar, jarliklar, kanyonlar, g'orlar va boshqalar) yengib o'tishga asoslangan faol turizm turi. Sport turizmiga turistik sport sayohatlari va turistik sport musobaqalari (marshrutlar va masofalar) kiradi;

suv turizmi – turli xil suzib o'tish vositalarida (katamaranlar, sollar, raftlar, baydarkalar, kayaklar va boshqalar) to'siqlarni (yoriqlar, tezkor oqimlar, tezkor kaskadlar, kanyonlar, daralar) yengib o'tib, tekislik va tog' daryolari bo'ylab suv marshrutlarini bosib o'tishni o'z ichiga oladigan, sayohatlar, turistik yurishlar;

taktik reja – turistik yurishda eng kam kuch, vosita, vaqt va zarur xavfsizlik darajasi bilan belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar va harakatlar majmui;

tog' turizmi – tog' dovonlari, tepaliklari va traverslari, muzliklar va boshqalarni yengib o'tib, o'rta va baland tog'li hududlar bo'ylab tog' marshrutlarini piyoda bosib o'tishni o'z ichiga oladigan, sayohatlar, turistik yurishlar;

to'siqlarning qiyinlik toifasi – turistik marshrutdagi (yurish) to'siqlarning texnik murakkabligi (dovonlar, traverslar, cho'qqilar, ostonalar, kanyonlar, g'orlar va boshqalar) ;

tur – turistik xizmatlarning kamida ikkita turini o'z ichiga olgan turistik xizmatlar majmui bilan ta'minlangan, belgilangan yo'nalish bo'yicha aniq muddatlardagi sayohat;

turist – yigirma to‘rt soatdan o‘n ikki oygacha ketma-ket davrda vaqtinchalik mamlakatda (joyda) bo‘luvchi yoki vaqtinchalik bo‘lish mamlakatda (joyda) bir kundan kam bo‘lmagan muddatda tunashni amalga oshiruvchi faoliyati manbadan foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan vaqtinchalik bo‘lish mamlakatiga (joyga) tashrif buyuruvchi jismoniy shaxs;

turistik marshrut (turizmning faol turlari uchun) – xavfsizlik talablariga muvofiq ishlab chiqilgan marshrutning murakkablik toifasini belgilagan holda turistik yurishda turistlarni (ekskursiyachilarni) kuzatib borish marshruti;

turistik xizmatlar – joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar;

turistik yo‘nalish – sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro‘yxati bo‘yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo‘li;

turistik yurish – muayyan marshrut bo‘ylab faol harakatlanish usullari bilan amalga oshiriladigan, o‘rganish, dam olish, sport, ekstremal va boshqa maqsadlarda, yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi rahbarligida yoki mustaqil ravishda (yurish ishtirokchilarining o‘zlarini kuch va vositalari bilan) turli xil tabiiy landshaftlarga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladigan, sayohat turi;

turistik-ekskursiya xizmatlari bajaruvchilari – yuridik shaxslar, ularning tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik shaklidan qat‘i nazar, tegishli malakaga ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘z-o‘zini band qilgan shaxslar;

turistik-ekskursiya xizmatlari buyurtmachilari – ijro etuvchi (yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi) tomonidan turistik va ekskursiya xizmatlarini qabul qilishdan manfaatdor shaxs (jismoniy yoki yuridik);

turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi);

turizmning faol turlari – maxsus jismoniy tayyorgarlikni va muayyan ko‘nikma va mahoratlarga ega bo‘lishni, shu jumladan asbob-uskunalar va transport vositalaridan foydalanishni talab qiladigan faol harakat usullari bilan tabiiy muhitda turistik sayohat, safar;

vakolatlilik – kutilgan natijalarga erishish uchun bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash ko‘nikmalari;

veykbording – snoubord va serfing elementlarini birlashtirgan faol turizm turi;

vindserfing – ustiga yelkan o‘rnatilgan serfingda uchishdan iborat bo‘lgan, faol turizm turi;

yelkanli turizm – daryolar bo‘ylab suv marshrutlari va ochiq suv zonalaridan kichik va yig‘ma yelkanli kemalarda o‘tishni o‘z ichiga oladigan, sayohatlar, turistik yurishlar;

yo'riqchi-yo'l boshlovchi – turistik marshrutlarda turistlar va ekskursantlarga hamrohlik qilish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan jismoniy shaxs;

yuqori xavfli marshrut – turistlarning (ekskursiyachilarning) hayoti va sog'lig'iga va ularning mulkiga zarar yetkazish xavfi ortishi bilan bog'liq bo'lgan tog'li yoki yurish qiyin bo'lgan joylar, speleologik, suv va boshqa obyektlar orqali turistik marshrut.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi" (IFUT-2.1), O'zMSt 640:2025;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2025-yil 17-iyuldagi Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK 2025), O'zMSt 641:2025;

Turizm xizmatlari. Faol turistik marshrutlarning yagona tasnifi. Umumiy talablar, O'zMSt 137:2024.;

Turizm xizmatlari. Yo'riqchi-yo'l boshlovchi xizmatlariga doir talablar, O'zMSt 136:2024;

Turizm xizmatlari. Ekskursiya xizmatlari. Umumiy talablar, O'zMSt 139:2024.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining tasniflagichi;

T/r – tartib raqami.

I. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Faol turizm turlarini tashkil etish va o'tkazish	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Turistik marshrutlardan o'tish davrida turistlarni tayyorlash, kuzatish, xizmat qilish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat, mijozlarning fikr-mulohazalarini qayd etish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	O seksiya Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish; 79 Turoperatorlar, turagentlar va boshqa turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati; 79.9 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar; 79.90 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar; 79.90.0 Joy bron qilish bo'yicha xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog'liq xizmatlar.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Turistik marshrutlar bo'yicha sayohatchilarga professional hamrohlik qiluvchi, tarixiy-madaniy, tabiiy va ijtimoiy obyektlar haqida ilmiy asoslangan ma'lumot beruvchi hamda guruh xavfsizligi va logistikasini boshqaruvchi mutaxassisdir	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi Malaka darajasi:
		51130005 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	51130005 Yo'riqchi-yo'l boshlovchi	A1.4	Toifalanmagan marshrutlarda turizmning faol turlari bilan shug'ullanishda turistlarni, ekskursantlarni kuzatib borish bo'yicha xizmatlarni tashkil etish va taqdim etish bo'yicha yagona talablar	A1.01.4	Toifalanmagan marshrutlarni shakllantirish va tashkil etish
				A1.02.4	Toifalanmagan marshrutlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash
				A1.03.4	Toifalanmagan marshrutlarni bosib o'tishda favqulodda hodisa paytida tadbirlarni o'tkazish
		A2.4	Toifalangan marshrutlarda turistlarni kuzatib borish bo'yicha xizmatlarni tashkil etish va taqdim etish	A2.01.4	Toifalangan marshrutlarni bosib o'tishda marshrutni ishlab chiqish, rejalashtirish va tashkil etish
				A2.02.4	Toifalangan marshrutlarni bosib o'tishda xavfsizlikni ta'minlash
				A2.03.4	Toifalangan marshrutlarni bosib o'tishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish
		A3.4	Tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snoubord bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish	A3.01.4	Tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snoubord bilan shug'ullanishda marshrutni bosib o'tishga tayyorlash
				A3.02.4	Tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snoubord bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash
				A3.03.4	Tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snoubord bilan shug'ullanishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish
		A4.4	Speleoturizm bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish	A4.01.4	Speleoturizm bilan shug'ullanishda marshrutni bosib o'tishga tayyorlash
				A4.02.4	Speleoturizm bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash
				A4.03.4	Speleoturizm bilan shug'ullanishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish

		A5.4	Ot turizmi bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish	A5.01.4	Ot turizmi bilan shug'ullanishda marshrutni bosib o'tishga tayyorlash
				A5.02.4	Ot turizmi bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash
				A5.03.4	Ot turizmi bilan shug'ullanishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish
		A6.4	Avtomototurizm va velosiped turizmi bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish	A6.01.4	Avtomototurizm va velosiped turizmi bilan shug'ullanishda marshrutni bosib o'tishga tayyorlash
				A6.02.4	Avtomototurizm va velosiped turizmi bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash
				A6.03.4	Avtomototurizm va velosiped turizmi bilan shug'ullanishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish
		A7.4	Suv turizmi bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish	A7.01.4	Suv turizmi bilan shug'ullanishda marshrutni bosib o'tishga tayyorlash
				A7.02.4	Suv turizmi bilan shug'ullanishda turistlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash
				A7.03.4	Suv turizmi bilan shug'ullanishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Yo'riqchi-yo'l boshlovchi
Mashg'ulot nomining kodi:	51130
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Yo'riqchi-yo'l boshlovchining malaka sertifikati va identifikatsiya kartasi (beydj) mavjudligi; Gid malaka sertifikati va identifikatsiya kartasi (beydj) mavjud bo'lganda gid xizmatlarini ko'rsatishi mumkin; yo'riqchi-yo'l boshlovchining MMK tomonidan attestatlangan murakkablik toifasidagi marshrutlarda ishlash huquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjat; turistlar (ekskursantlar) xavfsizligini ta'minlash va marshrutda xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajdan o'tish; yiliga bir marta tibbiy ko'rikdan o'tish va sog'liq to'g'risidagi ma'lumotnomaga ega bo'lish; Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kurslaridan o'tganlik to'g'risida sertifikat; Murakkab va o'zgaruvchan tabiiy sharoitlarda moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati. Stress, charchoq va yuqori mas'uliyat sharoitida hissiy barqarorlikni saqlay olish; Favqulodda va nostandart vaziyatlarda yetakchilikni namoyon qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish; Turistlar xavfsizligini ustuvor qadriyat sifatida qabul qilish va xavfsizlik madaniyatiga sodiqlik; Guruhni birlashtira olish, motivatsiya berish va ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyati; Turli millat, yosh va jismoniy imkoniyatga ega ishtirokchilar bilan ishlashda bag'rikenglik va inklyuziv yondashuv; Ekologik ong va barqaror turizm tamoyillariga sodiqlik; Yuqori ish intizomi, professionallik va etik me'yorlarga rioya qilish; Uzoq davom etuvchi va jismoniy yuklama yuqori bo'lgan marshrutlarda bardoshlilik va qat'iyatlilik; Ko'p vazifalilikni boshqarish va diqqatni jamlash qobiliyati.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	o'rta professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-

Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:		yo'riqchi-yo'l boshlovchi tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snoubord bilan shug'ullanishda; yo'riqchi-yo'l boshlovchi speleoturizm bilan shug'ullanishda; yo'riqchi-yo'l boshlovchi ot turizmi bilan shug'ullanishda; yo'riqchi-yo'l boshlovchi avtomototurizm va velosiped turizmi bilan shug'ullanishda; yo'riqchi-yo'l boshlovchi suv turizmi bilan shug'ullanishda; faol-turizm turlari bo'yicha yo'riqchi-yo'l boshlovchi.	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		5	Turoperator
Mehnat funksiyalarining tasnifi			
Kodi va nomi:	Mehnat vazifalari:		
A1.4 – Toifalanma gan marshrutlarda turizmning faol turlari bilan shug'ullanishda turistlarni, ekskursant larni kuzatib borish bo'yicha xizmatlarni tashkil etish va taqdim etish bo'yicha yagona talablar	A1.01.4 – Toifalanmagan marshrutlarni shakllantirish va tashkil etish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Marshrut hududining fizik-geografik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash va tahlil qilish	
		2. Turistlarga, ekskursantlarga marshrut, iqlim va ob-havo sharoiti, shuningdek, marshrut bo'ylab sanitariya-gigiyena holati to'g'risida to'liq, zarur va ishonchli ma'lumotlarni oldindan taqdim etish	
		3. Marshrutni bosib o'tish rejasini ishlab chiqish	
		4. Ovqatlanish va ichimlik rejimini rejalashtirish	
		5. Marshrutga chiqishdan oldin favqulodda vaziyat yoki baxtsiz hodisa yuz berganda harakatlar rejasini shakllantirish	
		6. Marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistik guruhni to'ldirish	
		7. Zarur bo'lganda, marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistning sog'lig'i to'g'risida ma'lumotnoma mavjudligini tekshirish	
		8. Guruhdagi turistlar sonini va marshrut turini hisobga olgan holda xizmatlarni taqdim etishga qo'shimcha yo'riqchilarni jalb qilish	
		9. Marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistik guruh xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan shaxsiy va umumiy jihozlarni tayyorlash	
		10. Kerakli marshrut hujjatlarini rasmiylashtirish	
		Ko'nikmalar:	
		Marshrutni rejalashtirish va rejasini tuzish	
		Hududning fizik-geografik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilish va baholash	
		Mumkin bo'lgan xavf va tavakkalchiliklarni tahlil qilish va baholash	
		Jins, yosh, jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda turistik, ekskursiya guruhini shakllantirish	

		Marshrutning xususiyatlarini umumiy uzunligi, davomiyligi, avtonomlik darajasini tahlil qilish va baholash Marshrutning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ovqatlanish va ichimlik rejimini rejalashtirish Mustaqil ravishda marshrut narxini hisoblab chiqish Mavjud meteorologik ma'lumotlarni tahlil qilish va ob-havoning o'z kuzatuvlari asosida qisqa muddatli mahalliy ob-havo bashoratlarini tuzish Marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistik, ekskursiya guruhi xavfsizligini ta'minlash uchun zarur jihozlarni tanlash Favqulodda hodisa yoki baxtsiz hodisa yuz berganda harakatlar rejalarini ishlab chiqish Turistlarga va ekskursantlarga xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha instruktaj o'tkazish Bilimlar: Turizmning faol turlarini amalga oshirish faoliyatini tartibga soluvchi davlat va xalqaro standartlar Kasb standarti va lavozim yo'riqnomasining talablari Turli xil xavf va tavakkalchiliklarni monitoring qilish, tahlil qilish va baholash usullari hamda ularni oldini olish choralari Marshrutni tashkil qilish va o'tish reglamentining metodikasi Marshrut hududining fizik-geografik, ob-havo iqlim sharoitlari, flora va fauna, relyefning xususiyatlari va o'ziga xosligi, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari Marshrut o'tkaziladigan hududning sanitariya-epidemiologik holati Mavjud meteorologik ma'lumotlarni tahlil qilish va ob-havoning o'z kuzatuvlari asosida qisqa muddatli mahalliy ob-havo bashoratlari Mo'ljallangan marshrutning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy, guruh, sug'urta va maxsus jihozlarning turli turlarini tanlash tamoyillari va usullari Turistlar (ekskursantlar) va ularning guruhining kundalik hayoti, ovqatlanish hamda ichimlik ichish rejimini samarali tashkil etishning asosiy usullari Marshrutni tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan texnik hujjatlar
	A1.02.4 – Toifalanmagan marshrutlarni kuzatib borish va xavfsizligini ta'minlash	Mehnat harakatlari: 1. Turistlar bilan tanishish, kerak bo'lganda guruhlarga bo'lish 2. Marshrutga chiqishdan oldin shaxsiy va umumiy xavfsizlik jihozlarini tekshirish 3. Turistik guruhiga xavfsizlik qoidalari bo'yicha yuzma-yuz formatda instruktaj o'tkazish 4. Marshrutga chiqishdan oldin turistik guruh, baza lageri va qutqaruv xizmati o'rtasida aloqa tizimini yaratish

		5. Hududga moslashish, marshrut bo'ylab optimal yo'lni tanlash
		6. Mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga qarab marshrutni bosib o'tishning maqbul taktikasi va texnikasini tanlash
		7. Marshrutni bosib o'tishda optimal harakat tezligini va dam olish rejimini tanlash
		8. Marshrutda guruh harakatini tashkil qilish, yetakchilik va o'zaro aloqa o'rnatish
		9. Zarur bo'lganda, shaxsiy va guruhli xavfsizlik jihozlaridan foydalanish
		10. Kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda marshrutni tuzatish
		11. Marshrutni bosib o'tish davomida turistik guruh bilan aloqa qilish, yordam berish, maslahat berish va ko'rsatma berish
		12. Turistik guruh tomonidan shaxsiy xavfsizlik talablariga, xavfsizlik texnikasi qoidalariga, o'zini tutish qoidalariga, harakatlanish va dam olish rejimlariga rioya etilishini nazorat qilish
		13. Ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish maqsadida turistik guruhning turli bo'linmalariga xizmat ko'rsatishda differensiallashgan yondashuvni qo'llash
		14. Turar joy, ovqatlanish va ichimlik rejimini tashkil qilish
		15. Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Marshrutni rejalashtirish, real sharoitga moslashtirish va guruh harakatini boshqarish
		Navigatsiya va yo'nalishni aniqlash
		Xavf va tavakkalchiliklarni baholash, oldini olish hamda kamaytirish
		Guruh xavfsizligini ta'minlash va ishtirokchilarning jismoniy holatini nazorat qilish
		Ob-havo va atrof-muhit sharoitlarini tahlil qilish
		Favqulodda vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish
		Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish
		Aloqa vositalaridan foydalanish va guruh bilan doimiy muloqotni saqlash
		Mojarolarni boshqarish va psixologik muhitni nazorat qilish
		Ekologik xavfsizlik va madaniyatlararo muloqot tamoyillariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Turizmning faol turlarini amalga oshirish faoliyatini tartibga soluvchi davlat va xalqaro standartlar
		Turizmning global axloq kodeksi
		Turizmning faol turlari sohasidagi kasbiy terminologiya

		Marshrut hududining fizik-geografik, ob-havo iqlim sharoiti, flora va fauna, relyefning tabiati va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari Har xil turdagi xavf va tavakkalchiliklarni baholash usullari Faol turizm va marshrutning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq marshrutni bosib o'tish reglamentlari Marshrutni bosib o'tishda xavfsizlikni ta'minlash usullari va xulq-atvor qoidalari Shaxsiy va umumiy xavfsizlik jihozlarining har xil turlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalari Maxsus texnik vositalardan foydalanmasdan hududga moslashish usullari Turistik guruhni tashkil etish, boshqarish va ularga ko'rsatma berish usullari Turar joy, ovqatlanish va ichimlik rejimini tashkil qilishning asosiy usullari Turistik guruh bilan aloqani saqlashning asosiy talablari Psixologiya, konfliktologiya va madaniyatlararo aloqa asoslari Ekologik xavfsizlikka rioya qilish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qoidalari Tezkor aloqa telefonlari, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi mintaqaviy xizmatlari joylashgan joylar, ogohlantirish sxemalari va aloqa seanslari Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy usullari
	A1.03.4 – Toifalanmagan marshrutlarni bosib o'tishda favqulodda hodisa paytida tadbirlarni o'tkazish	Mehnat harakatlari: 1. Favqulodda vaziyat xavfi yuzaga kelganda marshrutni to'xtatib turish yoki tuzatish va turistik guruhni xavfsiz zonaga olib chiqish 2. Turistik guruhda vahima va nizolarni oldini olish 3. Mavjud texnik aloqa vositalaridan foydalanish 4. Favqulodda vaziyat to'g'risida xabar berish va yordam chaqirish, xizmat buyurtmachisini, turizm sohasidagi vakolatli davlat organlarini, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xizmatlarini va manfaatdor tomonlarni xabardor qilish 5. Favqulodda vaziyat hududida joylashgan qutqaruv xizmatlari va boshqa guruhlar bilan aloqa o'rnatish va harakatlarni muvofiqlashtirish 6. Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, uning holatini nazorat qilish va psixologik yordam berish 7. Jabrlanuvchini marshrutdan evakuatsiya qilish 8. Favqulodda vaziyatni hujjatlashtirish va xabar qilish

		Ko'nikmalar: Favqulodda vaziyat yuzaga kelganda turistik guruhga yordam ko'rsatish va harakatlarni muvofiqlashtirish Turistik guruhda vahima va nizolarni oldini olish Aloqa vositalaridan foydalanish Xarita va navigatsiya vositalaridan foydalanish Avariya yordam olish joylarini tashkil qilish Favqulodda vaziyatlarda tezkor xabardor qilish va tegishli xizmatlar bilan muvofiqlashtirish Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish Favqulodda vaziyatni hujjatlashtirish Bilimlar: Turistik faoliyatda xavfsizlik talablari Turistik guruh xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat va xalqaro standartlar Turistik guruh psixologiyasi Favqulodda vaziyatlarda harakatlanish tartibi Turistik guruh xavfsizligini ta'minlash usullari Xarita, GPS va tabiiy yo'naltiruvchilar yordamida navigatsiyadan foydalanish usullari Barcha mavjud aloqa vositalaridan foydalanish usullari Og'zaki va imo-ishora muloqoti asoslari Birinchi tibbiy va psixologik yordam ko'rsatishning asosiy usullari Evakuatsiyani tashkil qilish tamoyillari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Turistik guruhga nisbatan kasbiy etika me'yorlariga amal qilish va bu borada mas'uliyatni o'z zimmasiga olish 2. Malaka talablari va lavozim majburiyatlariga muvofiq vazifalarni mustaqil bajarish 3. Marshrutda belgilangan xavfsizlik va tartib qoidalarini buzish uchun javobgarlik 4. Turistik marshrutning turi va murakkabligi xususiyatlariga muvofiq ravishda uni samarali va sifatli tashkil etish bo'yicha individual javobgarlik 5. O'z faoliyatingizni rejalashtirish 6. Belgilangan vazifalarni malaka talablari va lavozim majburiyatlariga muvofiq hal etish uchun javobgarlik
A2.4 – Toifalangan marshrutlarda turistlarni kuzatib borish bo'yicha xizmatlarni tashkil etish va taqdim etish	A2.01.4 – Toifalangan marshrutlarni bosib o'tishda marshrutni ishlab chiqish, rejalashtirish va tashkil etish	Mehnat harakatlari: 1. Marshrut hududining fizik-geografik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash va tahlil qilish 2. Turistlarga, ekskursantlarga marshrut, iqlim va ob-havo sharoiti, shuningdek, marshrut bo'ylab sanitariya-gigiyena holati to'g'risida to'liq, zarur va ishonchli ma'lumotlarni oldindan taqdim etish 3. Mo'ljallangan marshrutning mumkin bo'lgan xavflarini baholash, shu jumladan ob-havo va iqlim sharoitlarini

		baholash va marshrutdagi xavflarni kamaytirish choralarini ko'rish
		4. Marshrutni bosib o'tish rejasini ishlab chiqish
		5. Ovqatlanish va ichimlik rejimini rejalashtirish
		6. Marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistik guruhni to'ldirish
		7. Zarur bo'lganda, marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistning sog'lig'i to'g'risida ma'lumotnoma mavjudligini tekshirish
		8. Guruhdagi turistlar sonini va marshrut turini hisobga olgan holda xizmatlarni taqdim etishga qo'shimcha yo'riqchilarni jalb qilish
		9. Kerakli shaxsiy va umumiy jihozlar ro'yxatini tuzish
		10. Marshrut turining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turistik guruh xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan jihozlarni tayyorlash
		11. Kerakli marshrut hujjatlarini rasmiylashtirish
		12. Marshrutni ekspeditsiya tekshiruvini o'tkazish, marshrutga yondashish, to'siqlarni chetlab o'tish, marshrutni tark etish va marshrut hududidan chiqishning (chiqib ketish) mumkin bo'lgan variantlarini o'rganish yoki mavsum boshlanishidan oldin o'tkazilgan ushbu marshrut bo'yicha ekspeditsiya hisobotidan foydalanish
		13. To'siqlarni chetlab o'tish, marshrutni tark etish va marshrut hududidan chiqish (chiqib ketish) uchun mumkin bo'lgan variantlarini o'rganish
		14. Marshrut turiga va murakkablik toifasiga qarab harakatlanish va dam olish rejimini ishlab chiqish va mo'ljallash
		15. Marshrut turini va marshrutning murakkablik toifasini hisobga olgan holda ovqatlanish va ichimlik ichish rejimini rejalashtirish. Oziq-ovqat zaxiralarini to'ldirish imkoniyatini aniqlash, xarajatlar smetasini tuzish
		16. Turistlarning xohishlarini va yurish sharoitlarida taom tayyorlash va suv ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahsulotlarning yurish uchun taqsimotini va oziq-ovqat menyusi, ichimlik ichish rejimini tuzish
		17. Marshrutni transport bilan ta'minlashni rejalashtirish – marshrutning boshiga kelish, marshrut tugagan joydan ketish, marshrut ichidagi o'tish joylari, marshrut turiga qarab avtomobilda kuzatib borish
		Ko'nikmalar:
		Marshrutni rejalashtirish
		Hududning fizik-geografik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini baholash
		Xavf va tavakkalchiliklarni tahlil qilish va baholash
		Turistik (ekskursiya) guruhini shakllantirish

		Marshrutning xususiyatlarini baholash
		Marshrut narxini hisoblablash
		Mahalliy ob-havo bo'yicha qisqa muddatli bashorat tuzish
		Favqulodda hodisa yoki baxtsiz hodisa yuz berganda harakatlar rejalarini ishlab chiqish
		Turistlarga, ekskursantlarga shu jumladan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha instruktaj o'tkazish
		Murakkablik toifasiga qarab marshrut va uning texnik-taktik rejasini tuzish
		Marshrutning murakkablik toifasini aniqlash
		Ovqatlanish va ichimlik rejimini rejalashtirish
		Bilimlar:
		Faol turizmni tartibga soluvchi davlat va xalqaro standartlar, kasb standarti hamda lavozim yo'riqnomasi talablari
		Marshrut turini va murakkablik toifasini aniqlash tizimi, shuningdek murakkablik darajasiga mos taktik va texnik rejalarini ishlab chiqish metodikasi
		Marshrutni loyihalash, tashkil etish va bosib o'tish reglamenti
		Xavf turlari va tavakkalchiliklarni tasniflash, ularni monitoring qilish, tahlil qilish va oldini olish usullari
		Marshrut hududining fizik-geografik sharoitlari (relyef, iqlim, flora va fauna), ijtimoiy-madaniy xususiyatlari hamda sanitariya-epidemiologik holati
		Meteorologik ma'lumotlarni tahlil qilish va mahalliy qisqa muddatli ob-havo bashoratlarini tuzish asoslari
		Marshrut xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy, guruh va maxsus jihozlarni tanlash tamoyillari hamda ulardan foydalanish qoidalari
		Turistlarning tayyorgarlik darajasini baholash usullari
		Marshrut davomida guruh hayoti, ovqatlanish va ichimlik rejimini tashkil etish asoslari
		Marshrutni tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bo'lgan texnik hujjatlar tarkibi va ularni rasmiylashtirish talablari
		Marshrut hududidagi mahalliy urf-odatlar, me'yorlar va xulq-atvor qoidalari
	A2.02.4 – Toifalangan marshrutlarni bosib o'tishda xavfsizlikni ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Turistlar bilan tanishish, kerak bo'lganda guruhlariga bo'lish
		2. Marshrutga chiqishdan oldin shaxsiy va umumiy xavfsizlik jihozlarni tekshirish
		3. Turistik guruhiga xavfsizlik qoidalari bo'yicha yuzma-yuz formatda instruktaj o'tkazish
		4. Marshrutga chiqishdan oldin turistik guruh, baza lageri va qutqaruv xizmati o'rtasida aloqa tizimini yaratish
		5. Hududga moslashish, marshrut bo'ylab optimal yo'lni tanlash

		6. Mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga qarab marshrutni bosib o'tishning maqbul taktikasi va texnikasini tanlash
		7. Marshrutni bosib o'tishda optimal harakat tezligini va dam olish rejimini tanlash
		8. Marshrutda guruh harakatini tashkil qilish: yetakchilik va o'zaro aloqa
		9. Marshrutda turistik guruhni kuzatib borish va boshqarish
		10. Marshrutni bosib o'tish davomida xavfsizlik choralarini ko'rish
		11. Zarur bo'lganda, shaxsiy va guruhli xavfsizlik jihozlaridan foydalanish
		12. Kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda marshrutni tuzatish
		13. Marshrutni bosib o'tish davomida turistik guruh bilan aloqa qilish, yordam berish, maslahat berish va ko'rsatma berish
		14. Turistik guruh tomonidan shaxsiy xavfsizlik talablariga, xavfsizlik texnikasi qoidalariga, o'zini tutish qoidalariga, harakatlanish va dam olish rejimlariga rioya etilishini nazorat qilish
		15. Ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish maqsadida turistik guruhning turli bo'linmalariga xizmat ko'rsatishda differensiallashgan yondashuvni qo'llash
		16. Turar joy, ovqatlanish va ichimlik rejimini tashkil qilish
		17. Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish
		18. Turistga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish
		19. Marshrutga chiqishdan oldin shaxsiy va umumiy jihozlarning to'liqligi va yaroqliligini tekshirish, marshrut turi va marshrutning murakkablik toifasini hisobga olgan holda qadoqlash va transportda tashish
		20. Turistik guruh ichidagi yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning o'zaro harakatini tashkillashtirish
		21. Meteorologik ma'lumotlarni tahlil qilib, ob-havo va ko'chki holatini monitoring qilib, ko'chki xavfining qisqa muddatli bashoratini tuzish
		22. Marshrutning texnik jihatdan qiyin va xavfli qismlarida turistlar uchun xavfsizlikni tashkil qilish
		23. Daryolar bo'ylab o'tish joylarini boshqarish, harakatlanish taktikasi, texnikasi va xavfsizlik usullarini tanlash
		24. Marshrutlarni bosib o'tishda turistlarning jismoniy zo'riqishini nazorat qilish
		25. Jihozlarni shikastlangan taqdirda ta'mirlash
		Ko'nikmalar:
		Marshrutga tayyorgarlik ko'rish va xavfsizlik jihozlarini tekshirish, guruhga xavfsizlik bo'yicha instruktaj o'tkazish

		Navigatsiya va yoʻnalishni aniqlash
		Ob-havo va atrof-muhit sharoitlarini tahlil qilish, xavf va tahdid ehtimolini baholash
		Marshrut davomida xavf va tavakkalchiliklarni oldini olish va kamaytirish
		Turistik guruh harakatini boshqarish, yetakchilik qilish va ishtirokchilarning jismoniy holatini nazorat qilish
		Texnik jihatdan murakkab uchastkalar va suv toʻsiqlaridan oʻtishda xavfsizlikni tashkil etish, taktik va texnik usullarni qoʻllash
		Koʻchki xavfini baholash va noqulay sharoitlarda hududda moʻljal ola bilish
		Turistlarning notoʻgʻri xatti-harakatlari oqibatidagi jarohatlanish va kasallanishning oldini olish
		Guruh bilan doimiy aloqa oʻrnatish, savollarga professional javob berish va nizoli vaziyatlarni hal qilish
		Dam olish joylari va ovqatlanishni tashkil etish
		Xizmat etiketi, madaniyatlararo muloqot va mahalliy anʼanalarni hisobga olish
		Birinchi tibbiy yordam koʻrsatish
		Marshrutda foydalaniladigan jihozlardan foydalanish va zarurat tugʻilganda ularni taʼmirlash
		Bilimlar:
		Faol turizmni tartibga soluvchi davlat va xalqaro standartlar, kasb standarti talablari hamda Turizmning global axloq kodeksi
		Faol turizm sohasidagi kasbiy terminologiya va marshrutlarni oʻtkazish reglamentlari
		Marshrut hududining fizik-geografik sharoitlari hamda ijtimoiy-madaniy xususiyatlari
		Xavf turlari va tavakkalchiliklarning tasnifi, ularni baholash va kamaytirish usullari
		Marshrutni bosib oʻtishda xavfsizlikni taʼminlash usullari va xulq-atvor qoidalari
		Shaxsiy, guruh va maxsus xavfsizlik jihozlaridan foydalanish qoidalari hamda ularning nosozliklarini aniqlash va bartaraf etish usullari
		Navigatsiya asoslari (topografiya, xarita va kompas, GPS hamda tabiiy belgilar boʻyicha moʻljal olish)
		Turistik guruhni tashkil etish, boshqarish va ularga koʻrsatma berish tamoyillari
		Ob-havo sharoitlarini tahlil qilish, koʻchki xavfini baholash va yuqori togʻ sharoitlariga moslashish asoslari
		Texnik jihatdan murakkab uchastkalar va suv toʻsiqlaridan oʻtishning taktik va texnik usullari
		Tabiiy muhitda omon qolish asoslari hamda ekologik xavfsizlik tamoyillari

		Guruh bilan aloqa qilish, konfliktlarni boshqarish va madaniyatlararo muloqot asoslari
		Tezkor aloqa tartibi, favqulodda xizmatlar bilan bog'lanish sxemalari va ogohlantirish tizimlari
		Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish asoslari va sport fiziologiyasi elementlari
		Mehnat harakatlari:
A2.03.4 – Toifalangan marshrutlarni bosib o'tishda favqulodda hodisa paytida harakatlarni muvofiqlashtirish		1. Favqulodda vaziyat xavfi yuzaga kelganda marshrutni to'xtatib turish yoki tuzatish va turistik guruhni xavfsiz zonaga olib chiqish
		2. Turistik guruhda vahima va nizolarni oldini olish
		3. Mavjud texnik aloqa vositalaridan foydalanish
		4. Favqulodda vaziyat to'g'risida xabar berish va yordam chaqirish, xizmat buyurtmachisini, turizm sohasidagi vakolatli davlat organlarini, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xizmatlarini va manfaatdor tomonlarni xabardor qilish
		5. Favqulodda vaziyat hududida joylashgan qutqaruv xizmatlari va boshqa guruhlar bilan aloqa o'rnatish va harakatlarni muvofiqlashtirish
		6. Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, uning holatini nazorat qilish va psixologik yordam berish
		7. Jabrlanuvchini marshrutdan evakuatsiya qilish
		8. Favqulodda vaziyatni hujjatlashtirish va xabar qilish
		9. Omon qolish uchun kurash bosqichini boshlash: harakatlar rejasini ishlab chiqish
		10. Oziq-ovqat, suv, jihozlar zaxirasini saqlab qolish choralarini ko'rish
		11. Xalqaro kodning falokat signallaridan foydalanish, signal berish tartibi va falokat haqida xabar berish
		Ko'nikmalar:
		Favqulodda vaziyat yuzaga kelganda turistik guruhga yordam ko'rsatish va harakatlarni muvofiqlashtirish
		Turistik guruhda vahima va nizolarni oldini olish
		Mavjud barcha texnik aloqa vositalaridan foydalanish
		Xarita va navigatsiya vositalaridan foydalangan holda hududda yo'nalishni aniqlash
		Mavjud texnik aloqa vositalaridan foydalanish
		Avariyaviy dam olish joylarini tashkil qilish
		Favqulodda vaziyat to'g'risida xabar berish va yordam chaqirish, xizmat buyurtmachisini, turizm sohasidagi vakolatli davlat organlarini, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xizmatlarini va manfaatdor tomonlarni xabardor qilish
		Favqulodda vaziyatlar vazirligi va hududdagi qutqaruv guruhlar bilan o'zaro aloqa o'rnatish
		Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish, uning holatini kuzatish
		Favqulodda vaziyatni hujjatlashtirish

		Vaziyatni to'g'ri baholash, xavf darajasidan xabardor bo'lish, omon qolish
		Omon qolish uchun kurashish bo'yicha harakat rejasini ishlab chiqish
		Oziq-ovqat, suv, jihozlar zaxirasini saqlab qolish choralarini ko'rish
		Xalqaro kodning falokat signallaridan foydalanish
		Qidiruv-qutqaruv tadbirlarini o'tkazishda og'zaki bo'lmagan signallardan foydalanish
		Bilimlar:
		Xavfsizlikni ta'minlash talablari bo'yicha davlat va xalqaro standartlar
		Omon qolish uchun kurashish bo'yicha harakat rejasini ishlab chiqish qoidalarini
		Falokat signallarini berish usullari
		Jabrlanuvchini qo'l ostidagi vositalardan foydalangan holda tushirish, ko'tarish va qazib olish texnik usullari
		Mas'uliyat va mustaqillik:
2. Malaka talablari va lavozim majburiyatlariga muvofiq vazifalarni mustaqil bajarish		
3. Marshrutda belgilangan xavfsizlik va tartib qoidalarini buzish uchun javobgarlik		
4. Turistik marshrutning turi va murakkabligi xususiyatlariga muvofiq ravishda uni samarali va sifatli tashkil etish bo'yicha individual javobgarlik		
5. Belgilangan vazifalarni malaka talablari va lavozim majburiyatlariga muvofiq hal etish uchun javobgarlik		
A3.4 – Tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snovbord bilan shug'ullani shda turistlarni kuzatib borish	A3.01.4 – Tog' yonbag'irlarida tog' turizmi, chang'i va snovbord bilan shug'ullanishda Marshrutni bosib o'tishga tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Marshrutni ekspeditsiya tekshiruvini o'tkazish, marshrutga yondashish, to'siqlarni chetlab o'tish, marshrutni tark etish va marshrut hududidan chiqishning mumkin bo'lgan variantlarini o'rganish yoki mavsum boshlanishidan oldin o'tkazilgan ushbu marshrut bo'yicha ekspeditsiya hisobotidan foydalanish
		2. To'siqlarni chetlab o'tish, marshrutni tark etish va marshrut hududidan chiqish uchun mumkin bo'lgan variantlarini o'rganish
		3. Murakkablik toifasiga qarab marshrutni tuzish va rejalashtirish
		4. Marshrut turiga va murakkablik toifasiga qarab harakatlanish va dam olish rejimini ishlab chiqish va mo'ljallash
		5. Guruhdagi turistlar sonini, marshrut turini va marshrutning murakkablik toifasini hisobga olgan holda qo'shimcha yo'riqchi-yo'l boshlovchilarni jalb qilish
		6. Zarur bo'lganda, marshrut turini va marshrutning murakkablik toifasini hisobga olgan holda turistning sog'lig'i to'g'risida ma'lumotnoma mavjudligini tekshirish
		7. Marshrut turini va marshrutning murakkablik toifasini hisobga olgan holda ovqatlanish va ichimlik ichish rejimini

		rejalashtirish. Oziq-ovqat zaxiralarini to'ldirish imkoniyatini aniqlash, xarajatlar smetasini tuzish
		8. Turistlarning xohishlarini va yurish sharoitlarida taom tayyorlash va suv ta'minotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahsulotlarning yurish uchun taqsimotini va oziq-ovqat menyusi, ichimlik ichish rejimini tuzish
		9. Marshrutni transport bilan ta'minlashni rejalashtirish – marshrutning boshiga kelish, marshrut tugagan joydan ketish, marshrut ichidagi o'tish joylari, marshrut turiga qarab avtomobilda kuzatib borish
		10. Marshrut turini va marshrutning murakkablik toifasini hisobga olgan holda turistlarning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan jihozlarni tayyorlash
		11. Marshrutda navigatsiya va aloqa vositalarini tayyorlash, ularning sozligini tekshirish
		12. Qutqaruv va ixtisoslashtirilgan xizmatlarga turistlar guruhining marshruti va tarkibi to'g'risida ma'lumot berish
		13. Ko'chki xavfi darajasini tahlil qilish va baholash
		14. Chang'i va snobord bilan shug'ullanishda turistlarning tayyorgarlik darajasiga muvofiq marshrutni tanlash uchun trassalarni tasniflash ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish
		15. Tog' turizmi bilan shug'ullanishda xavf va tavakkalchiliklarni kamaytirish va oldini olish bo'yicha harakatlarni ishlab chiqish, shu jumladan marshrutga chiqish va tushish, tosh va muz devorlari, dovonlar, cho'qqilar traverslari, muzliklarni yengib o'tish
		Ko'nikmalar:
		Murakkablik toifasiga qarab marshrut va uning texnik-taktik rejasini tuzish
		Marshrutning texnik murakkabligini tahlil qilish va baholash
		Marshrutning murakkablik toifasini aniqlash
		Ovqatlanish va ichimlik rejimini rejalashtirish
		Turistlarning xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus shaxsiy va umumiy jihozlarni tanlash
		Ko'chki xavfining joriy darajasini monitoring qilish va baholash
		Marshrutning texnik xususiyatlarini tahlil qilish va baholash
		Bilimlar:
		Xavf turlari va tavakkalchiliklarning tasnifi
		Marshrutning murakkablik toifasini aniqlash tizimi
		Marshrut turiga va murakkablik toifasiga qarab marshrutning taktik va texnik rejasini ishlab chiqish metodikasi
